O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA RANGLARNING LINGVOMADANIY TALQINI

Masharipova Umida,
Ajiniyoz nomidagi NDPI o‘qituvchisi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18811913

Rang bilan boǵ’liq urf-odatlar, ananalar, kundalik turmush hodisalari qadimgi kishilarning estetik tafakkuri to‘ǵrisida yorqin tasavvur beruvchi bir vositadir. Shu ma’noda oq rang semantikasiga aloqador haqiqatlar uning hayotda nima uchun shu qadar keng o‘rin egallaganligini, francuz olimi Nyutonning oq rangni bejiz spektrdagi bosh rang deb atamaganligiga ishora etadi. Oq rang kun yoruǵligining mifologik ekvivalenti bo‘lib, har doim ezgulik mazmuni kasb etgan, shuningdek, bu rang hayotbaxsh omillar – sut va buǵdoyni, chanqoqlikni bosuvchi, tanani pokiza qiluvchi – suvni, bulutlar, halollik, yoruǵlik kabilarni o‘zida ifoda etgan. Shu bois eng qadimgi davrlardanoq oq rang bilan ezgulik, ko‘payish va ilohiylik kabi xususiyatlar boǵlanadi.

Turkiy xalqlar tarixining shamanlik davriga oid malumotlarga ko‘ra oq rang uluǵlik, adolat, kuchlilik ma’nolarida keng qo‘llanilgan[1]. Oltoyliklarda oq rang to‘ǵrilik, go‘zallik, uluǵvorlik ma’nolari bilan birga, uluǵ Tangrining yaratuvchilik va yaxshilik kuchlarini yiǵuvchilik sifatlarini ham bildirgan bo‘lsa[2] , Janubiy Sibirdagi turkiy xalqlarda esa oq rang epik va tarixiy nom sifatida ham uchraydi: Oq Qoon, Oq Mo‘lat va boshqalar.

Qizni unashish (unashtirish) marosimida, sovchilar oldiga oq (oq kiyimlik) qo‘yadilar. Bu — rozilik, yaxshilik belgisi hisoblanadi.

Shunday marosim bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator terminlar o‘zbek tili leksikasidan o‘rin olgan: Oq o‘rash, oq o‘ratish, oq kiyish, oq kiydi, oq kiydirish, oq qo‘yish, oqlik qo‘yish va hok.

Shunga o‘xshash yana bir qancha odat va e’tiqodlarni misolga keltirish mumkin. Nikoh kuni kelinga oq kiyim kiydirib, boshiga oq romol o‘ratadilar. Kelin kirib kelayotganda oq poyondoz yoziladi. Yaxshi xabar keltirgan kishiga suyunchi

[1] Ганж Р. Турк ишончлари ва миллий урф-одатларида ранглар. – Анқара, 1997. – Б.14.
[2] Молчанова. Прилагательные семантических полей «чёрный цвет» и «белый цвет» в ономастиконе алтайцев // Советская тюркология. - Баку, 1985. - № 3. - С. 39.

tariqasida oq romolcha chiqarib beradilar.To‘ylarda, hatto motam kunlarida uzoq-yaqin kishilariga oq romolchala ulashadilar. Bu odat nomini “Oq yirtish” deb ataladi.

Ko‘pchilik xalqlarning urf-odatiga ko‘ra, motam kunlari kiyiladigan azadorlik liboslari ko‘k va qora ranglarda bo‘ladi. O‘zbeklar odatida azador bo‘lgan kuniga bir yil to‘lganida, maraka qilib enilaridagi qora kiyinlarni tashlaydilar, oq liboslar kiyadilar. Bunday marakalar “Oq solur”, “Oq kiydi” terminlari bilan ifodalanadi.

Bolalar qon zambi kasali bilan og‘riganda, kasal yotgan ularning derazalari “qizil material” bilan to‘sib qo‘yiladi. Buning tibbiy ahamiyati bo‘lsa kerak.

Xalq e’tiqodida “sariq gul” ayriliq keltiradi deyiladi. Shu kabi, majoziy ma’no beruvchi misollarni “Devonu lug‘otit turk”da uchratish mumkin:

Qolnu bisa qizil tzar,
Qaranu bisa yashil tzar.

Mazmuni: Xotinlar eri bilan suhbat istaganda “qizil ipakli” kiyadi, yalinish va xushomadg‘oylik vaqtida “yashil” kiyadi. Xotinlar haqidagi bu maqol maqsadga erishish, yoqimli muomalada bo‘lishni eslatish uchun ishlatiladi (DLT, I, 1960, 375-bet).

Ranglarning simvolik ma’nolarda qo‘llanilishi, turli odatlar bilan bog‘liq o‘rinlari hozirgi hayotimizda ham bor.

Qizil so‘zini Mashrab o‘z gazalida shunday qo‘llaydi:

To kiydi qizil o‘zini zebo qilayin deb,
Ut yoqdi jakon mulkina g‘avgo qilayin deb (Mashrab).

Uyning toriga eskiroq gilam, quyi tomonga qip-qizil yangi namat solingan (Oybek). Qip-qizil gilam to‘shalgan xona o‘rtasida katta dasturxon yozilgan (I. Rahim).

Lekin shunisi borki, o‘zbeklar odati bo‘yicha кекса yoshdagi kishilar qizil tusli kiyimni o‘zlariga ep bilishmaydi, bachkana hisoblashadi.

N.B.Baxilinaning etirof etishicha, qadimgi ruslar uchun oq rang farishtaning martabasi, saodatli qiyofasini timsol etgan[3]. Afrika xalqlari esa oq rangni shodlik va begunohlik alomati deb bilishgan. Musobaqada ǵolib chiqqan va ozod qilingan qulga oq kiyim kiydirishgan. Shuningdek, oq so‘zi bilan boǵliq ko‘plab geografik nomlar mavjud – Oqdaryo, Oqsuv, Oqsoy va hokazo. Qiziqarlisi shundaki, bu atamalar bevosita rang bilan boǵliq bo‘lmay, balki qor suvlariga to‘yinishdan paydo bo‘ladigan chuchuk suvli daryoga nisbatan ishlatiladi. Bu holat qirǵizlarda,

[3] Бахилина Н.Б. История цветообозначений в русском языке. – М.: Наука, 1979. - С. 26.

ozarbayjonlarda, qozoqlarda, oltoyliklarda ham uchraydi[4].

Xorazmliklarda «oq er» atamasi suǵorilmagan erlarga nisbatan ishlatilgan. Azaldan kishilar yangi uyga ko‘chib o‘tishdan oldin xonaga, uyning ustunlariga va shiftiga un sepishgan. Ayrim joylarda hanuz kelinnikiga kuyov tomonidan kelgan qudalarga un sepishadi. Xalqimiz, odatda, kelin-kuyov yo‘liga oq poyandoz to‘shaydi. Ananaga ko‘ra qoraqalpoqlar oq uylarni, asosan, o‘ǵil uylantirish vaqtida qurganlar. Yangi turmush qurgan yosh kelin-kuyov ana shu oq utovda yashagan. Bizningcha, yosh kelin-kuyovlar uchun oq rangli o‘tov tiklanishida ramziy ma’no ham mavjuddir. Chunki ko‘pchilikka ma‘lumki, dunyoning deyarli barcha xalqlarida oq rang poklik, baxt-saodat va ezgulikni bildiruvchi timsol hisoblanadi. Oq kigizga ega bo‘lmagan kambaǵal oilalarda nikoh uyi qora rangli kigiz bilan qoplanib, usti oq mato bilan yopilgan.

Badiiy adabiyotda rang kitobxonning tevarak-atrof to‘ǵrisidagi tasavvur doirasini kengaytirishga emas, balki bizning hissiyotlarimizga, olam manzarasini shakllantiruvchi tasavvurimiz quvvatiga tasir ko‘rsatish vositasi hamdir. Rang simvolining tarixiy takomili, dastlab xalq oǵzaki ijodida paydo bo‘lgan rangga aloqador timsollarning yozma adabiyotga kirib kelishi va poetik ifoda etilishi, Alisher Navoiy ijodida, xususan, ǵazallarida rang ramzlarining qatiy o‘rinlashuvi va ularning mavzu-mundarijasining kengayib borishi jarayonini tadqiq etish natijasida yuzaga kelgan fikr-mulohazalarimiz yuzasidan quyidagi xulosalarga keldik: Dunyodagi boshqa xalqlar kabi turkiy millatlar tarixida ham voqea-hodisalarni ramziylashtirishga intilish kuchli bo‘lgan, jumladan, ular malum bir rang vositasida orzu-istaklari, maqsad-intilishlari, hayot haqidagi tasavvurlarini simvollar yordamida ifoda etishlari oqibatida ular ananaviylashib borgan. Hayotdagi bu ananaviy ramzlar, timsollar davlat siyosatida, urf-odatlarda, marosimlarda, xalq oǵzaki ijodining ertak, maqol, ko‘pincha qo‘shiq va laparlarida aks etgan. Rang simvolikasining badiiy adabiyotda o‘rinlashishini yaqqol ko‘rsatadigan asar Yusuf Xos Hojibning «Qutadǵu bilig” dostonidir. Unda turkiy xalqlarning rangga doir tasavvurlari koncentraciyalashganligiga guvoh bo‘lamiz.

Rang poetik unsur sifatida badiiy ananalar tadriji davomida rivojlanib, poetik tafakkurning barqaror elementiga aylanib borgan. Buni, ayniqsa, mumtoz adabiyotda mashuqaning yuzi, lablari qizil, zulfi, qoshi, ko‘zlari qora, xatti yashil, tanasi sariq

[4] Молчанова О.Т. Прилагательные семантических полей «чёрный цвет» и «белый цвет» в ономастиконе алтайцев // Советская тюркология, Баку, 1985, № 3. С.38.

yoki ushbu ranglarga yaqin qorishiq ranglar orqali tasvirlanganligida namoyon bo‘ladi. Binobarin, rang simvolikasida ham ananaviylashish, qoliplashish jarayonini kuzatish mumkinki, bu garchand ranglar palitrasidan foydalanishda shoirlar imkoniyatlarini malum ma’noda cheklasa-da, boshqa tomondan, poetik talqinning chuqurlashishiga olib kelgan. Chunki anananing muayyan rangdan faqat malum obekt bilangina boǵliqlikda (masalan, qora rangdan faqat soch, qosh, ko‘z; qizil rangdan yuz, lab tasvirida va hokazo) foydalanish talabi ushbu ranglar va ular ifodalagan simvolik mazmun talqinin ifoda etadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ганж Р. Турк ишончлари ва миллий урф-одатларида ранглар. – Анқара, 1997. – Б.14.
2. Молчанова. Прилагательные семантических полей «чёрный цвет» и «белый цвет» в ономастиконе алтайцев // Советская тюркология. - Баку, 1985. - № 3. - С. 39.
3. Бахилина Н.Б. История цветообозначений в русском языке. – М.: Наука, 1979. - С. 26.